

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor



A.K. Shadmanov

18-aprel 2022-yil

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Rektorat kengashining

8-sonli BAYONI

Toshkent shahar

18-aprel 2022-yil

Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov

**Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor**

Qatnashdilar:

**Toshkent tibbiyot akademiyasining
Rektorat kengashi a'zolari
(ro'yxat bo'yicha)**

KUN TARTIBI

1. Talabalar bilimni saqlanish holatining tahlili.

Ma'ruzachi – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sadikova Dilfuza Ravshanbekovna.

2. Yoshlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha bajarilgan ishlar.

Ma'ruzachi – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Bobomuratov Turdikul Akramovich.

3. Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rinlarda – Akademiya) Ilmiy Kengashi qarorlarining bajarilishi holati va ijro intizomi.

Ma'ruzachi – Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'I Aliev Shavkat Rofievich.

4. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

**Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor**



F.L.Azizova

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor**



T.A.Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh.Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i



F.X.Azizova

Yuriskonsult



B.N.Shukurov

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi–Talabalar bilimini saqlanish holatining tahlili – mavzusida Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i D.R.Sadikova ma’ruza qildi. Ma’ruza axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

1.1. Barcha fakultet kafedralarida fanlar bo‘yicha talabalar bilishi kerak bo‘lgan darslar xronometraji, asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yhati, elektron platformalar, baholash mezonlari va boshqa amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazish mexanizmlariga oid kafedra mudirlari va fakultet dekanlari tomonidan muntazam ravishda nazorat kuchaytirilsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i D.R.Sadikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2021/2022 o‘quv yili davomida.

1.2. Barcha mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar ro‘yhati qayta ko‘rib chiqilsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2021/2022 o‘quv yili davomida.

1.3. Talabalarning mustaqil ta’lim jarayoniga yetarli darajada shart–sharoitlar yaratib berish maqsadida o‘quv, o‘quv-uslubiy mahsulotlar, elektron ma’nbalar, texnik vositalar va kerakli o‘quv jixozlar bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor J.K.Xaqberdiyev, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.Y.G‘aipov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Axborot resurs markazi direktori G.V.Kuzmina, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2021/2022 o‘quv yili davomida.

1.4. Akademiyada ta’lim sifatini ko‘tarish maqsadida **yangi 2022/2023 o‘quv yiliga:**

– **O‘quv-uslubiy boshqarma bo‘limiga:** kafedra xodimlarining soni, fakultet va o‘quv guruhlar soni hamda talabalar o‘quv yuklamalarini to‘g‘ri taqsimlanishi dars jadvalini tuzishda inobatga olinsin;

– pedagoglarni o‘quv yuklamalari (pedagog va talaba nisbati) qayta ko‘rib chiqilsin va reja-moliya bo‘limi bilan hamkorlikda takliflar kiritilsin;

– Akademiya bo‘yicha yagona baholash tizimiga oid nizom ishlab chiqilsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.Y.G‘aipov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova.

Muddat: 2021/2022 o‘quv yili davomida.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi–Yoshlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha bajarilgan ishlar–mavzusida Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor T.A.Bobomuratov ma’ruza qildi. Ma’ruza axborot uchun qabul qilinsin.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

**Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor**



F.L.Azizova

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor**



T.A.Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh.Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i



F.X.Azizova

Yuriskonsult



B.N.Shukurov

3. Kun tartibining uchinchi masalasi—Akademiya Ilmiy Kengashi qarorlarining bajarilishi holati va ijro intizomi (ta'lim sohasiga oid O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqlarining bajarilishi bo'yicha hisobot) – mavzusida Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Sh.R.Aliyev ma'ruza qildi. Ma'ruza axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

3.1. Akademiya barcha xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida Ijro intizomiga oid elektron tizimi bo'yicha o'qitishni tashkillashtirish yo'lga qo'yilsin, bunda birinchi navbatda yangi ishga qabul qilingan va ma'muriyat xodimlari, dekanat va kafedra xodimlarini o'qishga jalb etilishi nazarda tutilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, malaka oshirish fakulteti dekani R.A.Zokirxo'jaev.

Muddat: 2021/2022 o'quv yili davomida.

3.2. Barcha xodimlarning bajargan ishlari bo'yicha kunlik, haftalik, oylik va yillik hisobot topshirishining Elektron tizimini joriy qilinishi yo'lga qo'yilsin. Shuningdek, avval faoliyat yuritgan va hozirda to'xtatilgan (<http://devon.tma.uz/>) tizimi faoliyatini tiklash bo'yicha ishlar olib borilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov.

Muddat: 2021/2022 o'quv yili davomida.

3.3. Ijro intizomiga rioya qilmagan kuyidagi xodimlar (tibbiy pedagogika va xalq tabobati fakulteti dekani A.A.Xamraev, normal va patologik fiziologiya kafedrasini mudiri B.O'.Iriskulov, malaka oshirish fakulteti dekani R.A.Zakirxodjaev, Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi mudiri B.Mamatkulov; Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muxandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani S.Aliev, Jamoat salomatligi va menejment kafedrasini mudiri G.K.Xudoykulova) ogohlantirilsinlar va kelgusida bunday kamchiliklar qaytarilmasligi uchun qat'iy choralar ko'rilishi ta'minlansin.

4. Turli masalalar bo'yicha O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradovning axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va Rektorat Kengashi o'z ishini yakunladi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Rektorat Kengashi kotibi



G.A. Ismailova

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

**Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor**



F.L.Azizova

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor**



T.A.Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh.Karimov

O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i



F.X.Azizova

Yuriskonsult



B.N.Shukurov